

**MAMLAKATIMIZDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH VA
BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

PhD Nasimov Ravshanjon Azimovich

<https://orcid.org/0009-0002-2295-430X>

ravshanjonnasimov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq tizimida soliq risklarini baholash va boshqarishning uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq to'lovchilarning faoliyatini risk-orientirlangan yondashuv asosida tahlil qilish masalalari yoritilgan. Maqola doirasida soliq risklarini aniqlash mezonlari va ularni miqdoriy baholash modellari ko'rib chiqilgan hamda O'zbekiston soliq tizimida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida kechayotgan global o'zgarishlar va davlat moliya tizimini raqamlashtirish jarayoni soliq ma'muriyatchiligi oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Soliq tizimining barqarorligi va byudjet daromadlarining to'liqligi bevosita soliq risklarini to'g'ri baholash va ularni o'z vaqtida bartaraf etishga bog'liq. O'zbekiston Respublikasida amalga

oshirilayotgan soliq islohotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri — bu soliq nazorati jarayoniga risk-orientirlangan yondashuvni to‘liq joriy etishdir. Soliq riskini baholash uslubi nafaqat davlatning moliyaviy yo‘qotishlarini kamaytirish, balki halol soliq to‘lovchilar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Chunki mazkur tizim tekshiruvlarni kamaytirib, asosiy e‘tiborni soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash ehtimoli yuqori bo‘lgan "intizomsiz" subyektlarga qaratish imkonini beradi. Biroq, hozirgi kunda soliq risklarini aniqlashning matematik va statistik usullarini takomillashtirish, sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish hamda xalqaro tajribani milliy qonunchilikka moslashtirish masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu maqola aynan mana shu uslubiy bo‘shliqlarni o‘rganish va sohani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarori bilan tasdiqlangan "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi"da "xorijiy davlatlar tajribasi hisobga olingan holda, tavakkalchiliklarni baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lamini qisqartirish, soliq qonunchiligi sohasidan tashqarida faoliyatni amalga oshiradigan shaxslarni norasmiy sektordan chiqishiga (qonuniylashtirishiga) ko'maklashish, nazorat faoliyatini amalga oshirishda tavakkalchiliklarni tahlil qilish va boshqarishning zamonaviy tizimini joriy etish, soliq to'lovchilarni segmentasiyalash asosida davlat soliq xizmati organlarining eng maqbul modelini joriy etish, soliq xizmati organlarida zamonaviy biznes-tahlil (Business Intellegence) tizimini,

shuningdek, strategik va prosessual boshqaruvni joriy etish" kabi bir qator strategik vazifalar belgilab berilgan.

Tadqiqot ishimiz doirasida O'zbekiston soliq tizimida garchi, yangi mexanizmlar bo'lsada, soliq riski va uni baholash hamda boshqarish bilan bog'liq bir qator muammolar ham borki, ularni echimi bilan bog'liq ilmiy-amaliy takliflar bugungi kunda katta ilmiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari amaldagi mavjud mexanizmlarning samaradorligini oshirishga ham katta ehtiyojlar mavjud. Biz quyida ana shu masalalar haqida so'z yuritamiz.

Dastlab bu boradagi mavjud muammolar xususida fikr bildiradigan bo'lsak, birinchisi bu soliq to'lovchilarning soliq xavfini aniqlashda, faoliyati shuhali bo'lgan korxonalarni aniqlashning murakkabligi muammosidir. Fikrimizcha, xufiyona iqtisodiyot sohasida shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni aniqlash va ularga nisbatan ta'sir choralarini qo'llashning samaradorligini oshirish talab etiladi, vaholanki, shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tezkorlik bilan aniqlash va ularning faoliyaga chek qo'yish hamda soliq organlariga berilgan vakolatlardan to'liq foydalanmayapti.

Bizningcha, bu jarayonni amalga oshirish uchun shubhali operatsiya va shubhali korxonalar tushunchalariga aniqlik kiritib olish lozim bo'ladi. Jarayonning mazmunidan kelib chiqib, biz bu tushunchalarga o'zimizning mualliflik ta'rifimizni ishlab chiqdik. Ya'ni, shubhali operatsiya – soliq to'lovchilarning (soliq agentlarining) rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraqa faktura va yoki bank operatsiyalarining xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati xususiyatiga va turiga, shuningdek xarid qilinadigan va realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomenklaturasiga muvofiq emasligi, soliq to'lovchi tomonidan bitim tuzishda ko'zlangan asosiy maqsad soliqlarni to'lamaslik hamda bitim (operatsiya) bo'yicha majburiyat shartnoma tarafi bo'lmagan shaxs yoki bitimni (operatsiyani) bajarish majburiyati shartnoma

yoki qonun bo'yicha yuklatilmagan shaxs tomonidan bajarilganligi bilan izohlansa, shubhali korxona deganda esa – yagona yoki ustuvor maqsadi soliq to'lamaslik tarzidagi asossiz soliq nafi olishdan yoxud o'zi to'laydigan soliqlarning summasini kamaytirishdan iborat bo'lgan operatsiyalarni yoki operatsiyalar ketma-ketligini amalga oshirgan sub'ektlar tushunilishi kerak deb hisoblaymiz.

Shubhali operatsiyalar va ularni amalga oshiruvchi korxonalarni aniqlash esa, fikrimizcha, Davlat soliq qo'mitasining tegishli departamenti (axborot – kommunikasiya texnologiyalari departamenti) tomonidan tashqi manba ma'lumotlarini olish, qayta ishlash va tahlil qilishi zarur bo'ladi.

Tahlillar natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shubhali operatsiyalarni amalga oshirganligini aniqlash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan algoritmgaga asoslanish lozim bo'ladi:

Birinchi bosqich: Soliq to'lovchilarning (soliq agentlarining) rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraqa faktura va yoki bank operatsiyalarining xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati xususiyatiga va turiga, shuningdek xarid qilinadigan va realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomenklaturasiga muvofiq emasligi, soliq to'lovchi tomonidan bitim tuzishda ko'zlangan asosiy maqsad qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaslik yoki uni hisobga olish ekanligi hamda bitim (operatsiya) bo'yicha majburiyat shartnoma tarafi bo'lmagan shaxs yoki bitimni (operatsiyani) bajarish majburiyati shartnoma yoki qonun bo'yicha yuklatilmagan shaxs tomonidan bajarilganligi aniqlash;

Ikkinchi bosqich: O'tkazilgan tahliliy ishlar natijasida faoliyatida shubhali holatlar aniqlangan taqdirda ya'ni, tovarlar nomutanosibligi aniqlangan sub'ektlar amalga oshirilgan (EHF va yirik bank aylanmasi) tovar aylanmasiga nisbatan potentsial soliq xavfi summasidan kelib chiqib, uch toifaga ajratish;

Uchinchi bosqich: Kameral soliq tekshiruvlari boshqarmasiga faoliyatida tovarlar nomutanosibligi aniqlangan sub'ektlarda o'tkazilgan tahlil natijalari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi hamda dastur orqali kameral soliq tekshiruvi tayinlash to'g'risida topshiriq yuborish va shubhali korxonalar ro'yxatiga kiritilgan sub'ektlar kontagentlari aniqlanadi ularda kameral soliq tekshiruvlarini o'tkazish uchun hududiy soliq idoralariga dastur orqali topshiriq yuboriladi va ma'lumotlar umumlashtirish;

To'rtinchi bosqich: Faoliyati shubhali deb topilsa tahlika tahlil dasturi orqali segmentlashtirib, DSQning "lozim darajadagi ehtiyotkorlik" rasmiy veb sahifasida "shubhali" korxonalarini tarkibiga kiritish uchun Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash departamentiga taqdim qilish;

Beshinchi bosqich: Faoliyati shubhali deb topilsa ma'lumotlarni belgilangan tartibda xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash departamentiga taqdim etish;

Oltinchi bosqich: Hududiy soliq organlarining yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish tuzilmalari tomonidan yangi tashkil etilgan sub'ektlarning ko'rsatilgan yuridik manzili o'rganish va soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash boshqarmasiga taqdim etish;

Ettinchi bosqich: Faoliyati shubhali deb topilsa, tahlika tahlil dasturi orqali segmentlashtirib, DSQning "lozim darajadagi ehtiyotkorlik" rasmiy veb sahifasida "shubhali" korxonalarini tarkibiga kiritish uchun Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash Departamentiga taqdim qilish.

Bu jarayonda faoliyatida (oxirgi 12 oy davomida) shubhali operasiyalar ulushi yuqoriligi (>60 %), faoliyatida (oxirgi 12 oy davomida) shubhali operasiyalar ulushi 30 - 60 % gacha bo'lib soliq tekshiruvlari natijasida hisoblangan soliqlarni belgilangan muddatlarda to'lanmasligi, muqaddam bankrot deb e'lon qilingan tashkilotda rahbar yoki ta'sischi (ishtirokchi)

bo'lgan va muqaddam soliq to'lashdan qasddan bo'yin tovlaganlik uchun rahbar yoki ta'sischi (ishtirokchi) sifatida javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan rahbarlik yoki ta'sischilik (ishtirokchilik) amalga oshirilganligi, iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun etarli moddiy texnika bazasi mavjud emasligi (ombor, transport vositalari, qurilish texnikalari va h.k), soliq to'lovchiga soliq qarzi mavjud hamda shubhali operatsiyalar amalga oshirgan soliq to'lovchi qo'shilganligi, faoliyat boshlagan davrdan boshlab, qisqa muddatlarda yirik miqdorda tovar aylanmasini amalga oshirib, rasmiy ishlayotgan xodimlar sonini kam ko'rsatganligi va shu kabi mezonlarga alohida e'tibor berishi lozim deb hisoblaymiz.

Soliqqa tortishning rivojlanish tendentsiyalari bo'yicha jahon amaliyotiga e'tibor beriladigan bo'lsa, adolatli soliqqa tortish amaliyotini kuchaytirishga qaratilgan umumiy jarayonlarni ko'rish mumkin. Bu jarayonning ajralmas qismini davlat budjetiga soliq tushumlarini jalb qilishning barqaror tizimini mustahkamlash bilan bir qatorda, budjetga soliq tushumlarining belgilangan vaqt va miqdorda tushmay qolish xavflarini baholash, uning sabablarini aniqlash hamda bu boradagi ishlarni takomillashtirib borish sanaladi. Jahon amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, soliq tizimida risklarni baholash o'tgan asrning etmishinchi yillarida ancha rivojlanib, bugunga qadar jahon mamlakatlari tajribasida bu jarayon anchayin takomillashib bormoqda. Bu borada turli xil maxsus alohida konferentsiyalar o'tkazilib, ularda soliq risklarini boshqarish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilib, davlatlar amaliyotga joriy qilib kelinmoqda.

Bugungi kunda soliq riskini boshqarish bo'yicha mavjud muammolar xususida fikr bildiradigan bo'lsak, birinchisi bu soliq to'lovchilarning soliq xavfini aniqlashda, faoliyati shubali bo'lgan korxonalarni aniqlashning murakkabligi muammosidir. Fikrimizcha, xufiyona iqtisodiyot sohasida shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni aniqlash va ularga nisbatan ta'sir choralarini qo'llashning samaradorligini

oshirish talab etiladi, vaholanki, shubhali operasialarni amalga oshirgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tezkorlik bilan aniqlash va ularning faoliyaiga chek qo'yish hamda soliq organlariga berilgan vakolatlardan to'liq foydalanmayapti.

O'zbekiston soliq tizimida soliq riskini boshqarish yagona uslubiyotining mavjud emasligi yoki mavjudlarining o'zaro bog'lanmaganligi muammosi bu boradagi muhim masalalardan biri sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda biz tomonimizdan "soliq riskini boshqarish uslubiyoti" taklif etilmoqda. Bizning fikrimizcha, soliq riskini boshqarish faqatgina davlat budjeti manfaatlaridan kelib chiqib emas, shu bilan birgalikda soliq to'lovchining soliq riski nuqtai nazaridan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

"Soliq riskini boshqarish uslubiyoti" soliq riskini boshqarishda soliq to'lovchi va davlat budjeti manfaatlari jihatidan qanday yondoshishni ko'rsatib bersa, biz tomonimizdan taklif etilayotgan "Soliq tizimida soliq riskini aniqlashga tizimli modeli" esa, soliq tizimida davlat soliq siyosatida soliq riskiga oid umumiy yo'nalishlari tavsiflab beradi.

O'zbekiston soliq tizimida soliq xavfini boshqarishda "FeedBack" tizimidan foydalanish bo'yicha strategik rejalar qilingan bo'lsada, ammo, bu tizim amaliy jihatdan hali joriy etilmagan. O'zbekiston soliq tizimida soliq riskini boshqarishda yana bir muhim e'tibor qaratilishi va takomillashtirilishi zarur bo'lgan jarayonlardan biri bu soliq to'lovchilarning kontragentlarni tanlash chog'ida lozim darajada ehtiyotkorlik qilishga amal qilish va uning oqibatida soliq to'lovchi doirasida (birinchisida) soliq xavfining yuzaga kelishini baholash masalasi (muammosi)dir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat budjetga QQS to'lamagan yoki o'zaro operasialarini Ehfdan aks ettirmagan yoki soliq organlariga soliq hisobotini taqdim etmagan kontragentlar bilan amalga oshirilgan operasialar bo'yicha

holatlar soliq riskining oshishiga xizmat qilmoqda. Shu muammoni kamaytirish yoki bartaraf etishning yo'llaridan biri sifatida bizning fikrimizcha, bu jarayonni avtomatlashtirish algoritmlarga asoslangan mezonlarni ishlab chiqishdir.

Xulosa va takliflar.

Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda riskka asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish, raqamli soliq nazorati vositalarini rivojlantirish hamda soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish orqali soliq nazoratining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси-Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.